
Matlubaxon Haydarova, mehnat faxriysi: Esdalik gullarining tayyorlashimiz ro'zg'orimizga daromad, farzandlarimga esa hunar bo'ldi.

Farg'ona shahrida xotin-qizlarni sog'liqlarini tiklash maqsadida ularni "Ayollar daftari"ga olinib, dori-darmonlari va operatsiya harajatlari to'lab berilmoqda. "Beglar" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Shaxnozaxon Mamadaliyeva ham "Ayollar daftari"ga olingan.

Fuqaroning sog'lig'ini tiklash maqsadida jamg'arma mablag'lari hisobidan 7 million so'm mablag' dori-darmon sotib olish uchun ajratilgan.

Xonadon sohibasi Matlubaxon Haydarova bir necha turdagi esdalik gullari va shakllarni tayyorlaydi, qizi ham shu hunardan unumli foydalanmoqda. Shuningdek, Shaxnozaxon 40 turdan ortiq taomlar va shirinliklar tayyorlash bo'yicha ham o'quv markazi ochgan bo'lib, joy masalasi muammo bo'layotgan edi.

Farg'ona shahar hokimi o'rinbosari Dilshodaxon Xolmatova mazkur muammoni o'rganib, mahalla idorasidagi bo'sh turgan xonalar tadbirkorga ajratildi.

2023-05-01 15:40:28